

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING BILIM OLISHGA BO'LGAN QIZIQISHINI O'STIRISH**Usmonova Norxol Qarshiyevna***Jizzax shahar**Sharof Rashidov tumani 9-maktab**Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilim olishga qiziqish oshirish metodlari haqida so'z boradi. Yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalash jamiyatimizning oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Hozir maktablarimizda talim-tarbiya olayotgan yosh avlod kelgusida ajdodlarining xayrli ishlarini davom ettiradigan, o'zidan keyingi avlodlarga ozod va obod Vatanni meros qilib qoldiradigan hamda O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi kishilardir.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich, metod, sinf, pedagog, psixologiya, bilim, shakllanish va h.k.z*

Bilish faoliyatiga bo'lgan ongli intilish shakllangandagina talim jarayoni sifat va samaradorligi ortadi. Agar boshlang'ich talim jarayoni o'quvchida bilishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantira olmas ekan, yuqori sinflarda borgan sari uning bilishga bo'lgan intilishi susayadi. Xo'sh, o'quvchilar qalbida bilim olishga bo'lgan ongli intilishni, mustaqil va tanqidiy fikrlashni qanday uyg'otmoq lozim?

Buning uchun asrlar o'tsa-da hanuzgacha dunyo tan olayotgan buyuk bobokalonlarimizning ibratomuz hayotlaridan saboqlar keltirish mumkin. Ulug' mutafakkirlarimiz qanday qilib bunday yuksak natijalarga erishdilar? Nimaning evaziga? So'z mulking sultoni Alisher Navoiy bobomizmi yoki Yevropa davlatlarida Avitsenna nomi bilan shuhrat qozongan Abu Ali ibn Sino bobokalonimizmi? Bu savollarga javob izlash uchun tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, demak ular bolalik chog'laridanoq ilm o'rganishga ixlos qo'yganliklarini ota-onalari tomonidan o'z vaqtida payqaganligini guvohi bo'lamiz. Birgina Alisher Navoiy bobomiz 4-5 yoshlik chog'laridayoq Fariddin Attorning Mantiq ut-tayr asarini yod olganliklarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu buyuk ajdodlarimizning yoshliklariga oid hayotiy lavhalarni multfilmlar shaklida multimedia ilovalariga kiritilib, har bir darsning mavzusiga muvofiq ravishda manaviyat daqiqalarida hech bo'lmaganda bittadan buyuk mutaffakkirlarning bolalik chog'lari aks ettirilgan voqealar ko'rsatilib, o'quvchilarda ham shunday yuksak natijalarga erishishga ishtiyoq uyg'otish va buning yechimi esa faqat va faqat chuqur bilim olish ekanligi va kelajakda olingan bilimlar, tinimsiz harakatlar natijasida ulkan marralarga erishish maqsadini qo'ygan holda dars tashkil etish lozim. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov Yuksak manaviyat-yengilmas kuch asarida shunday degan edilar: Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo'l avvalo talim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqida gap ketsa,

ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo'lgan yana bir buyuk zot-o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan birga tilga olamiz .

Boshlang'ich talimning asosiy vazifalaridan yana biri bu- o'quvchilarda har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat talim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini taminlashdan iborat. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o'zlashtirish va zarur kompetensiyalarni egallash jarayonida o'qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam rivojlanib boradi. Shuning uchun ham dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan Nima yaxshi-yu nima yomon?, Jumboqlar bozori, Fazilatlar sandig'i, Birni o'rsang, o'nni ek kabi talimiy o'yinlardan keng foydalanish lozim. Bunday o'quv faoliyati natijasida boshlang'ich talimni bitirgan o'quvchilar obyektiv olam jonli va jonsiz tabiatdan iborat ekanligi, insonlar esa muayyan jamiyatda yashab, faoliyat ko'rsatishi, tabiat va jamiyat haqidagi aniq yo'naltirilgan tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim. Chunki, o'quvchilarga bu haqiqatni anglamasdan turib, ularni shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy turmushga moslashtirish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 19-fevraldagi Sog'lom bola yili Davlat dasturi to'g'risida”gi PQ-2133-sonli Qarori 71-bandida belgilangan vazifalar ijrosini taminlash maqsadida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini talim jarayoniga joriy etish bo'yicha biz o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, multimedia ilovalari yaratilmoqda. Bu kabi shart-sharoitlar biz muallimlarni mashaqqatli, ammo sharafli kasbimizga yanada sidqidildan yondashishni talab etadi.

Talim darslikdan boshlanadi degan ibora, ayniqsa, boshlang'ich talimga taalluqlidir. Talim jarayonida darslik muhim o'rin tutadi. Malumki, o'quvchilarda uchraydigan manaviy-axloqiy nuqsonlarga ular qalbida milliy qadryatlarga asoslangan, madaniy va estetik his tuyg'ularini shakllantirishda odobnoma darslari alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda 1-sinf odobnoma darsliklari to'g'risida so'z yuritishdan avval, M. I. Maxmudovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tsam: “Hozirgi zamon o'qituvchilari uchun muammoli metodni joriy etish qiyinchilik tug'diradi. Chunki darsliklar va o'quv dasturlari ananaviy pedagogik tafakkur asosida eskirib qolgan didaktika va metodikaga asoslangan. O'quv materialini bayon etish mantig'i esa uni ipidan-ignasigacha batafsil tushuntirishni talab etadi va o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatlariga etibor berilmaydi. Shundan kelib chiqqan holda odobnoma darsliklari yuzasidan quyidagi takliflarni keltirmoqchiman. 1-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda dars mavzusini mazmunida aks etgan multfilmlar namoyish etilib, multqahramonlar fazilati, ular nima uchun bunday hollarga tushib qolganliklari to'g'risida muammoli vaziyat tashkil etilib, o'quvchilarni erkin fikrlashga, xulosa chiqarishga undaydigan odobnoma darslariga oid darsliklar va multimedia ilovalari yaratilsa o'quvchilarning tarbiyasiga, ijodiy fikrlashiga ijobiy tasir ko'rsatardi. Bugungi

kunda maktab oldida turgan asosiy talab- yosh avlodga mustahkam bilim berish, ularning barcha fanlarni chuqur egallashi, o`zlashtirgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olishidan iborat. Bunda maktab va ota-onalar hamkorligini to`g`ri yo`lga qo`yish ahamiyatlidir. Zero, o`qituvchi tomonidan berilgan bilimlarning o`zlashtirish darajasi o`quvchilarning ota-onalar hamkorligida uyda mustahkamlanishiga bog`liq. O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksida: Ota-ona o`z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o`z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o`z bolalarini sog`ligi, jismoniy, ruhiy, manaviy va ahloqiy kamoloti haqida g`amxo`rlik qilishlari shart , -deyiladi. Shunday ekan, oilada kamolga yetayotgan har bir shaxsni mustaqil fikr yuritadigan, aql-idrok sohibi qilib yetishtirish muhim ahamiyatga ega. Lekin shunday kam masuliyatli ota-onalar ham borki, ularning farzandlariga yetarli vaqt ajratmasligi bolalarning fanlarni o`zlashtirishiga salbiy ta'sir ko`rsatmoqda. Ming afsuski, ayrim oilalarda kechki ovqatdan so`ng odatda, birga o`tirib bolalarning yoshiga mos bo`lmagan turli seriallarni ko`riladi. Undan ko`ra birgalikda bugungi kunning sarhisobi haqida gaplashish mumkin emasmi? Farzandlarining nima qilgani, qanday yutuqlarga erishgani, olgan 4 yoki 3 bahosining sababini so`rash mumkin-ku axir? Shuningdek, ota-onalar bolalarining uyga berilgan vazifalarini tekshirib, nazoratga olishlari va bunga yaqindan yondashishlari nihoyatda zarurdir. Chunki, uyga berilgan topshiriqlar bolalarning mustaqil vazifalari bo`lib, bu ularning fikrlash darajasini rivojlantirishga, faolligini taminlashga, o`z ustida ishlashga davat etadigan jarayondir. Bu borada ota-onalar uy vazifalarini bolalarning ishtirokisiz o`zlari bajarib bermasdan, balki unga tarbiyaviy tomondan rahbarlik qilishlari va mustaqil fikrlashlari uchun yo`llanmalar berishlari lozim. Mazkur muammoli masalalarni ijobiy hal qilishning malum bir usullarini ko`rib chiqamiz. Yuqoridagi talim-tarbiyaviy ishlarni bekorlik bilan bajarishda sinf rahbarlari yetakchi kuch hisoblanadi. Masalan, sinf rahbarining har bir oilaga alohida kirib borishi, oilaga va ota-onalarga hamda shu oilada tarbiyalanayotgan bolaga nisbatan hurmat ruhini kuchaytiradi. Sinf rahbarlarining ota-onalar bilan tarbiyaviy suhbatlari, bir-biriga samimiy munosabatlari ham bolaning tarbiyasiga samarali ta'sir ko`rsatib, natijada bolaning hayotida sezilarli o`zgarishlar sodir etadi. Bunday paytda sinf rahbari ota-onalar bilan Farzand tarbiyasini birgalikda o`ylab ko`raylik, Siz bu masalaga nima deysiz?, Bolangizning darslarga ishtirokini nazorat qilasizmi?, Farzandingiz bilan birga vazifa tayyorlaysizmi?, Farzand tarbiyasi va odob-ahloq masalasida barcha birdek masul kabi mavzular asosidagi suhbatlar va anketa savollari o`zaro yaqinlik rishtalarini bog`lashlari uchun yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Buning uchun sinf rahbari ota-onalarga hafta kunlarini maxsus nomlashlari haqida ham tavsiyalar berishi mumkin. Masalan, dushanba-shaxmat va shashka kuni, seshanba- mutolaa, chorshanba-til o`rganish, payshanba-mohir qo`llar, juma-qadryatlar va urf odatlar bilan amaliy tanishish, shanba-tozalik va yakshanba-qarindosh urug`larning kuchli ta`siri natijasida manaviy-axloqiy tarbiyani tarkib toptirish kuni. Kunlarning maxsus nomlar

bilan atalishi balki g'alati tuyular, biroq oiladagi bolajonlar o'sha narsaga odatlansa, ularda yomon illatlar haqida o'ylashga ham vaqti qolmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilar ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini taminlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zi ham pedagogik, psixologik va fiziologik tomondan tajribali, bilimli va o'zi ham tarbiyalangan bo'lishi lozim. Ana shundagina u o'ziga o'ta darajada talabchan ustoz ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarda mustaqil fikrlovchi, harakatchan, tashabbuskor, ziyrak, yangilikka intiluvchan, sezgir hamda intellektual qobiliyatlarini shakllantira oladi. Buning uchun haftada bir marotabadan ota-onalar uchun Ochiq eshiklar kunini tashkil etishi lozim. Bu darslarni kuzatish jarayonida ota-onalar o'z farzandlarini tengdoshlariga nisbatan fanlarni o'zlashtirishini, darslardagi faolligining guvohi bo'ladilar. Natijada, ota-onalar bolalarini sinfdoshlari orasida fanlarni o'zlashtirgani qiynalib uyatga qolmasliklari va buning oqibatida tortinchoq, o'z fikrini erkin bayon etishga qiynaladigan bo'sh o'zlashtiruvchi bo'lib qolmasligi uchun etiborni kuchaytiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1.Boshlang'ich sinflarda bilish metodlari-Toshkent 2019
2. 2.Metodlar to'plami-Toshkent 2015
3. 3.ziyo.uz
4. 4.https.hozir.org